

**JINOYATDA ISHTIROKCHILIK****Barakayeva Iroda Karimqul qizi****Abdullayeva Ozoda Tohir qizi**

Jizzax viloyati yuridik texnikum o‘quvchilari

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.14288476>**

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishning maxsus belgilari, jinoyatga suiqasd qilishning obyektiv belgilari, jinoyatda ishtirokchilik hamda uning belgilari haqida yoritib berilgan.

*Kalit so‘zlar:* jinoyatga tayyorgarlik, to‘g‘ri qasd, egri qasd, tamom bo‘lgan suiqasd, tamom bo‘lmagan suiqasd, bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi.

**УЧАСТИЕ В ПРЕСТУПЛЕНИИ**

*Аннотация.* В данной статье описаны особые признаки приготовления к преступлению, объективные признаки покушения на преступление, участия в преступлении и его признаки.

*Ключевые слова:* приготовление к преступлению, истинный умысел, злой умысел, оконченное убийство, неоконченное убийство, исполнитель, организатор, свидетель и соучастник.

**PARTICIPATION IN CRIME**

*Abstract.* This article describes the special signs of preparation for a crime, the objective signs of an attempt to commit a crime, participation in a crime and its signs.

*Key words:* preparation for the crime, true intent, malicious intent, completed assassination, incomplete assassination, executor, organizer, witness and accessory.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 25-modda 1-qismiga ko‘ra, shaxsning qasddan qilinadigan jinoyatni sodir etish yoki yashirish uchun shart-sharoit yaratuvchi qilmishi o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra sodir etilishi boshlangunga qadar to‘xtatilgan bo‘lsa, bunday qilmish jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish deb topiladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishning quyidagi maxsus belgilarini qayd etish lozim:

- jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish jinoyatni sodir etish yoki jinoyatni yashirish uchun yo‘naltirilganligi;
- jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish muayyan harakat yoki harakatsizlikda ifodalananishi;
- jinoyatni sodir etish yoki yashirish uchun shart-sharoit yaratishning jinoyat sodir etilgunga qadar amalga oshirilishi;

- jinoyatni sodir etish yoki yashirishga sharoit yaratishning oxiriga yetkazilmaganligi;
- jinoyatni sodir etish yoki yashirishga sharoit yaratishning shaxsning irodasiga bog'liq bo'lmanan holatlarga to'xtatilganligi;
- jinoyatga sharoit yaratishning qasddan amalga oshirilishi.

Jinoyat kodeksida jinoyatga tayyorgarlik ko'rishning barcha shakllari to'liq keltirilmagan bo'lib, qonun normasini tahlil etish asosida uning ikki shaklini ajratish mumkin: 1) jinoyatni sodir etish uchun sharoit yaratishga qaratilgan qilmish; 2) jinoyatni yashirishga sharoit yaratuvchi qilmish.

To'g'ri qasddan jinoyat quroli yoki vositasini tayyorlash, moslashtirish, izlash yoki jinoyat ishtirokchisini izlash, jinoiy til biriktirish yoxud qasddan boshqa sharoit yaratish sodir etiladigan jinoyat boshlangunga qadar shaxsga bog'liq bo'lmanan holatlarga ko'ra to'xtatilgan bo'lsa, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish deb topiladi.

Jinoyat kodeksi 25-moddasiga muvofiq, qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lmanan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan bo'lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi.

To'g'ri qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lmanan holatlarga ko'ra ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik to'liq amalga oshirilmagan yoki shaxs istagan jinoiy oqibat kelib chiqmagan bo'lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish deb topiladi.

Jinoyatga suiqasd qilishning quyidagi obyektiv belgilarini qayd etish lozim:

1) ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazish; 2) jinoyat sodir etish boshlangan bo'ladi; 3) dispozitsiyada ifodalangan harakat yoki harakatsizlik amalga oshiriladi; 4) jinoiy oqibat kelib chiqmaydi; 5) shaxsga bog'liq bo'lmanan holatlarga ko'ra oxirigacha yetkazilmaydi. Quyida mazkur obyektiv belgilar tahlil qilinadi.

Jinoyatga suiqasd qilishning subyektiv tomoni ikkita belgi bilan ifodalanadi:

1. Shaxsda jinoyatni sodir etishga qaratilgan to'g'ri qasdning mavjudligi. Shaxs harakat yoki harakatsizligi JK Maxsus qismida nazarda tutilgan muayyan jinoyatni sodir etishga qaratilgan bo'lib, qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglaydi, mazkur harakat (harakatsizlik)ni bajarishni va oxirigacha yetkazishni istaydi. Yoki shaxsning qasdi ijtimoiy xavfli zararning yuz berishi mumkinligi yoki muqarrarligiga ko'zi yetishi va yuz berishini istashi;

2. Shaxsning maqsadi to'g'ri qasddan sodir etiladigan jinoyatni bajarishga bevosita qaratilgan harakatlar (harakatsizlik)ni bajarish va jinoyatni oxiriga yetkazish.

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bir necha turlarga ajratiladi.

Shaxs tomonidan jinoiy maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan barcha harakat yoki harakatsizlik amalga oshirilgan, biroq shaxs istagan oqibat unga bog‘liq bo‘lмаган sabablarga ko‘ra yuz bermagan bo‘lsa, tamom bo‘lgan suiqasd deyiladi.

Shaxs tomonidan jinoiy niyatiga erishish uchun zarur bo‘lgan barcha harakat (harakatsizlik)ni o‘ziga bog‘liq bo‘lмаган holatlarga ko‘ra amalga oshira olmagan bo‘lsa, qilmish tamom bo‘lмаган suiqasd deyiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 26-moddasiga muvofiq shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarini yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarni oxiriga yetkazish mumkinligini anglagan holda to‘xtatsa, shuningdek jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda, shunday oqibat kelib chiqishining oldini olsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning huquqiy oqibati, avvalo, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortilmasligi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyatdan ixtiyoriy qaytishning ikki turi nazarda tutilgan: birinchisi jinoyatning obyektiv tomoniga kiradigan barcha harakat sodir etilgunga qadar va ikkinchisi esa barcha harakatlar sodir etilganidan so‘ng amalga oshiriladigan ixtiyoriy qaytish.

Ixtiyoriy qaytishning birinchi turi shaxsning passiv xulq atvorida namoyon bo‘ladi: jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichida jinoiy faoliyatning to‘xtatilishi; ikkinchisi shaxs tomonidan jinoyatning obyektiv tomoniga kiradigan barcha harakatlar sodir etilganidan keyin jinoiy oqibat yuz berishini oldini olish hisoblanadi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishdan ixtiyoriy qaytish, odatda, harakatsizlik orqali ifodalanib, jinoyatga shart-sharoit yaratishga qaratilgan harakatlarning yakunlanishida ifodalanadi.

Tamom bo‘lмаган suiqasddan ixtiyoriy qaytish, odatda, harakatsizlikda ifodalanadi. Jinoyatning obyektiv tomoniga kiradigan harakatlarni sodir etishni boshlagan shaxs jinoiy faoliyatini to‘xtatadi.

Tamom bo‘lgan suiqasddan ixtiyoriy qaytish mumkin emas (odam o‘ldirish jinoyati misolida). Qasddan odam o‘ldirish jinoyatida qilmish sodir etilganidan so‘ng ham aybdor jabrlanuvchini o‘limi yuz bermasligini oldini olish imkoniyatiga ega bo‘lgan taqdirda ham sodir etilgan qilmishni orqaga qaytarish, bartaraf etish mumkin emas. Bunday hollarda jabrlanuvchining o‘limi yuz bermasligi ehtimoli mavjud bo‘lib, bu ham aybdorning irodasiga bog‘liq bo‘lмаган holatlarga bog‘liq, umuman olganda, jinoyatdan ixtiyoriy qaytish aktiv emas, balki passiv xulq-atvorda ifodalanishi kerak.

Ishtirokchilik tushunchasi – O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 27-moddasiga ko‘ra ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi.

Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat o‘z xususiyatiga ko‘ra yakka holda sodir etilgan jinoyatlardan xavfliroq hisoblanadi. Chunki ishtirokchilikda jinoyatni sodir etish yakka holda jinoyat sodir etishga nisbatan oson bo‘ladi. Bundan tashqari, jinoyatda ishtirokchilik jamiyat uchun ham ijtimoiy xavfli hisoblanadi. Ya’ni, sodir etilgan jinoyat bitta bo‘lsa ham, jinoyatchilar soni ikki yoki undan ortiq bo‘ladi. Bu esa, jinoyatda ishtirokchilik jinoyat soniga nisbatan jinoyatchilar soni ortishi bilan jamiyat uchun ijtimoiy xavfli hisoblanadi.

Jinoyatda ishtirokchilikning belgilari – obyektiv va subyektiv belgilarga bo‘linadi.

Jinoyatda ishtirokchilikning obyektiv belgisi jinoyatni sodir etishda ikki yoki undan ortiq shaxsning (miqdor ko‘rsatgichi) birgalikda (sifat ko‘rsatgichi) qatnashishi tushuniladi.

Jinoyat sodir etilishida ikki yoki undan ortiq shaxs ishtirok etadi. Ishtirokchilikda jinoyat sodir etilganlik deb topish uchun har qanday shaxsni jinoyat sodir etishda ishtirokini emas, balki jinoiy javobgarlik yoshiga to‘lgan (JKning 17-modda.) va aqli raso bo‘lgan jismoniy shaxslarni (JKning 18-modda.) ishtiroki tushuniladi. Jinoyatni birgalikda sodir etgan shaxslarni biri aqli raso va jinoiy javobgarlik yoshiga to‘lgan ikkinchisi aqli noraso yoki jinoiy javobgarlik yoshiga to‘lmagan shaxs bo‘lsa, mazkur jinoyatni ishtirokchilikda sodir etilgan deb bo‘lmaydi.

Jinoyatni birgalikda sodir etish deb umumiy jinoiy maqsadni amalga oshirish uchun hamda umumiy jinoiy oqibatni yuz berishini ko‘zlab sodir etish tushuniladi.

Agar ishtirokchilardan birining harakati boshqa ishtirokchilarning umumiy maqsadi bilan qamrab olinmagan bo‘lsa, yuz bergen oqibat uchun boshqa ishtirokchilar javob bermaydi hamda ushbu jinoiy oqibat yuz bergen holat ishtirokchilikda sodir etilgan deb topilmaydi.

Jinoyat ishtirokchilari jinoyat sodir etishda bajaradigan harakatlariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Jinoyat kodeksining 28-moddasiga ko‘ra jinoyatda ishtirokchilarning 4 turi mavjud. Bular bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar. Jinoyat ishtirokchilari jinoyatni sodir etishda ular tomonidan bajariladigan harakatlar hamda ularning vazifalariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Ishtirokchilarning jinoyatda ishtirok etganlik darajasi jinoyat uchun jazo tayinlashda ham ahamiyatli hisoblanadi.

Jinoyatni bevosita to‘la yoki qisman sodir etgan yoxud ushbu Kodeksga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lmagan shaxslardan yoki boshqa vositalardan foydalanib, jinoyat sodir etgan shaxs bajaruvchi deb topiladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rilishiga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs tashkilotchi deb topiladi. Uyushgan qurolli guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etgan yoki unga rahbarlik qilgan shaxs ham tashkilotchi hisoblanadi. Jinoyat tashkilotchisi jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilishi, jinoyatning boshqa ishtirokchilarini vazifalarini bo‘lib berishi, ular o‘rtasida hamjihatlikni ta’minalash, jinoyatni sodir etishni boshqarishi bilan boshqa ishtirokchilardan xavfliliqi bilan ajralib turadi.

Jinoyat sodir etilishiga qiziqtiruvchi shaxs dalolatchi deb topiladi. Dalolatchining ijtimoiy xavfliliqi shundaki, u shaxsda jinoyat sodir etish xohishini uyg‘otadi. Jinoyat sodir etish tashabbusi bilan chiqadi. Dalolatchini jinoyat sodir etishga qiziqtirishi turli shaklda namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, jinoyat sodir etishga haq evaziga ko‘ndirishi, iltimos qilishi, ishontirishi va boshqalar.

Jinoyat sodir etilishiga o‘z maslahatlari, ko‘rsatmalari bilan, vositalar berish yoki to‘sqliarni yo‘qotish bilan ko‘maklashgan, shuningdek jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli, izlari va vositalarini yoxud jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan narsalarni yashirishga, shuningdek bunday narsalarni olish va o‘tkazish to‘g‘risida oldindan va’da bergen shaxs yordamchi deb topiladi.

Jinoyat kodeksining 29-moddasida ishtirokchilikning quyidagi shakllari keltirilgan.

Oddiy ishtirokchilik, murakkab ishtirokchilik, uyushgan guruh, jinoiy uyushma.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirmay jinoyat sodir etishda qatnashishi oddiy ishtirokchilik deb topiladi. Oddiy ishtirokchilikda ikki yoki undan ortiq shaxs oldindan til biriktirmasdan jinoyatni obyektiv tomonini sodir etishda birgalikda ishtirok etadi. Ya’ni, jinoyat bajaruvchilari kamida ikkita shaxs bo‘lishi hamda oldindan til biriktirilmaganligi talab etiladi.

Xulosa qilib aytish joizki, oldindan til biriktirgan guruh, jinoiy guruh va jinoiy uyushmaning tashkilotchilari hamda a’zolari tayyorgarlik ko‘rishi yoki sodir etilishida o‘zlar qatnashgan barcha jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar. Oldindan til biriktirgan guruh, jinoiy guruh va jinoiy uyushmaning tashkilotchilari hamda a’zolari tomonidan sodir etilgan jinoyatlarda boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati va xabardorligi, umumiy maqsadlari birligi talab etiladi.

**REFERENCES**

1. Kabulov R., Yakubov A.S., Shakurov R.R. va boshqalar. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Uslubiy materiallar.—T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004.
2. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'lilot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.
3. <http://www.lex.uz>
4. <http://www.norma.uz>